

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

MAY, 2026-YIL





O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

TOSHKENT-2026

ISBN 978-9910-8337-6-2

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2026. – 70 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 8-may

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-8337-6-2

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

Мадаминов Рахматилло

ПРИГОТОВЛЕНИЕ ПИТАТЕЛЬНЫХ СРЕД ДЛЯ БАКТЕРИЙ И ГРИБОВ 5-7

TARIX FANLARI

Qirg'izov Baxtiyor

FARG'ONA VILOYATIDAGI ZIYORATGOHLARNI AYRIMLARINING TARIXI VA ULAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR TAHLILI8-12

IQTISODIYOT FANLARI

Mirzayev Shoxrux

KON-METALLURGIYA SANOATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MEGA INVESTITSIYA LOYIHALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR 13-15

Aliqulov Abbos

ARALASH MA'LUMOTLAR ASOSIDA REGRESSIYA MODELLARINI BAHOLASHDAGI YASHIRIN SEGMENTLAR MUAMMOSI 16-22

FALSAFA FANLARI

Boyxonov Umidjon

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA INSON HUQUQLARI USTUVORLIGI KONSEPSIYASINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 23-28

FILOLOGIYA FANLARI

Isomidinova Zilola

RAQAMLI OAVDA MUALLIFLIK HUQUQI MUAMMOLARI 29-31

Raximjoniva Nozima

ZAMONAVIY MEDIA MAKONIDA TURIZM KONTENTINING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 32-35

Isanova Feruza

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DIPLOMATIK LEKSIKANING SEMANTIK XUSUSIYATLARI 36-39

YURIDIK FANLAR

Мухиддинова Эльзода

ИНСТИТУТ НЕДОПУСТИМОСТИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ: ОБОСНОВАНИЕ НЕЗАВИСИМОСТИ И ОБОСОБЛЕННОСТИ ОТ ДРУГИХ УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ 40-43

Хайдарова Хилола

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЗАЩИТЫ ЦИФРОВЫХ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА 44-48

Shorasulova Gulnoza

RAQAMLI KRIMINALISTIKA TUSHUNCHASI VA UNING QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI 49-54

PEDAGOGIKA FANLARI

Nizomova Bashoratxon, Mirazamova Mahliyo

ZOOLOGIYA TA'LIMIDA TAYANCH BELGILAR (SXEMA, JADVAL, GRAFIK) VA MULTIMEDIA
TAQDIMOTLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH 55-58

Xaydarova Namunaxon

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN
MEXANIZMNI ISHLAB CHIQISH 59-61

Adamatov Anvar

KOREYA TA'LIM TIZIMIDAGI PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNING GLOBAL TA'LIM
KONTEKSTIDAGI AHAMIYATI 62-65

SIYOSIY FANLAR

Xolmatov Saidbek

ERON ISLOM RESPUBLIKASINING MINTAQAVIY STRATEGIYASI VA SURIYA OMILINING
GEOSIYOSIY AHAMIYATI 66-69

PEDAGOGIKA FANLARI

ZOOLOGIYA TA'LIMIDA TAYANCH BELGILAR (SXEMA, JADVAL, GRAFIK) VA MULTIMEDIA TAQDIMOTLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Nizomova Bashoratxon Begaliyevna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, v.b. dotsent, ADPI "Biologiya va geografiya" kafedrası v.b. dotsenti

Email: mansurchik20090909@gmail.com

Tel: +998 90 170 05 06

ORCID: 0009-0003-1359-0900

Andijon, O'zbekiston

Mirzamova Mahliyo Ahmatqul qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi, Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezis zoologiya ta'limida tayanch belgilar (sxema, jadval, grafik) va multimedia taqdimotlaridan foydalanish samaradorligini empirik asoslashga bag'ishlangan. Tadqiqotda 100 nafar o'quvchi va 50 nafar biologiya o'qituvchisi ishtirokida so'rovnoma o'tkazilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning 90 foizi vizual materiallardan foydalanishni xohlaydi, 65 foizi esa faqat og'zaki tushuntirishda qiyinchilikka duch keladi. O'qituvchilarning 38 foizi taqdimotlardan umuman foydalanmaydi, asosiy muammo texnika vositalarining yetishmasligi (40%) va vaqt tanqisligi (24%) ekanligi aniqlandi. Tezis yakunida ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: zoologiya ta'limi, tayanch belgilar, multimedia taqdimoti, ko'rgazmalilik tamoyili, so'rovnoma, ta'lim samaradorligi.

IMPROVING THE EFFICIENCY OF USING REFERENCE SYMBOLS (DIAGRAMS, TABLES, GRAPHS) AND MULTIMEDIA PRESENTATIONS IN ZOOLOGY EDUCATION

Nizomova Bashoratxon Begaliyevna

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences,

Acting Associate Professor,

Associate Professor of the Department of Biology and Geography,

Andijan State Pedagogical Institute

Mirzamova Mahliyo Ahmatqul qizi

Student of Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, Uzbekistan

Annotation. This thesis is devoted to the empirical substantiation of the effectiveness of using reference symbols (diagrams, tables, graphs) and multimedia presentations in zoology education. The study involved a survey of 100 students and 50 biology teachers. The results showed that 90% of students prefer the use of visual materials, and 65% experience difficulties when lessons are based only on oral explanation. It was found that 38% of teachers do not use presentations at all, with the main problems being lack of technical equipment (40%) and time constraints (24%). The thesis concludes with practical recommendations to address these issues.

Key words: zoology education, reference symbols, multimedia presentation, visualization principle, survey, educational effectiveness.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Zoologiya fanining murakkab biologik tushunchalar, ilmiy terminlar va abstrakt jarayonlarni o'z ichiga olganligi uni o'qitishda ko'rgazmali vositalardan foydalanishni talab etadi. Shu sababli, zoologiya ta'limida tayanch belgilar (sxemalar, jadvallar, grafiklar) va multimedia taqdimotlaridan kompleks foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Zoologiya darslarida tayanch belgilar va multimedia taqdimotlaridan foydalanish samaradorligini empirik asoslash va metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Zoologiya ta'limida ko'rgazmalilik tamoyilining ahamiyati bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. Azizxo'jayeva pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish nazariy asoslarini ishlab chiqqan [1; 45-52-b]. Muallifning ta'kidlashicha, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning bilim olish faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi [1; 78-80-b].

Tolipova biologiya fanini o'qitishda sxema va jadvallardan foydalanish metodikasini batafsil yoritgan [2; 112-118-b]. Uning fikricha, biologiya ta'limida tayanch belgilardan foydalanmasdan murakkab mavzularni tushuntirish samarali bo'lmaydi [2; 205-210-b].

Xorijiy tadqiqotchilardan Jonassen vizual vositalar o'quvchilarning tushunish darajasini o'rtacha 45% ga oshirishini empirik isbotlagan [3; 112-120-b]. U kompyuter asosidagi vizual modellash o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi [3; 89-95-b].

Mayer esa multimedia o'rganish nazariyasida matn va tasvirni bir vaqtda taqdim etish samaradorlikni 60% gacha oshirishini ko'rsatgan [4; 200-215-b]. Mayerning ta'kidlashicha, multimedia vositalari to'g'ri qo'llanilganda o'quvchilarning bilimni qabul qilish va xotirada saqlash qobiliyati sezilarli darajada oshadi [4; 45-52-b].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'rgazmalilik tamoyilining samaradorligi ilmiy asoslangan bo'lsa-da, zoologiya fanining o'ziga xos xususiyatlarini (murakkab biologik tushunchalar, hayvonlarning ichki tuzilishi, sistematikasi) hisobga olgan holda tayanch belgilar va taqdimotlardan kompleks foydalanish bo'yicha maxsus ilmiy-metodik tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur tezis ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Metodologiya: Tadqiqot 2025-yil yanvar-fevral oylarida Toshkent shahridagi 3 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazildi. So'rovnomada 100 nafar 5-7-sinf o'quvchisi va 50 nafar biologiya fani o'qituvchisi ishtirok etdi. Anketa so'rovi (yopiq va ochiq savollar) hamda kuzatish usullari qo'llanildi. Ma'lumotlar Microsoft Excel dasturida foiz va χ^2 mezonida tahlil qilindi.

Natijalar: Tadqiqot jarayonida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy o'qitish usullari zamonaviy o'quvchilarning ehtiyojlarini to'liq qondirmayapti. So'rovnomada ishtirok etgan 100 nafar o'quvchidan 90 nafari (90%) darslarda vizual materiallar, ayniqsa multimedia taqdimotlaridan foydalanish dars sifatini tubdan yaxshilashini ta'kidlagan.

So'rovnoma natijalarining qisqacha tahlili

1-jadval

No	Ko'rsatkich	O'quvchilar	O'qituvchilar
1	Vizual materiallardan foydalanishni xohlash	90%	-
2	Faqat og'zaki tushuntirishda qiyinchilik	65%	-
3	Tayanch belgilar foydali deb hisoblash	42% (juda)	80 % (albatta)
4	Taqdimotlardan muntazam foydalanish	-	32%
5	Asosiy muammo	-	Texnika yetishmasligi (40%)

Respondent o'quvchilarning 65 foizi faqat ma'ruza va darslikdagi matn asosida zoologik jarayonlarni (masalan, hayvonlarning qon aylanish tizimi yoki sistematikasi) tasavvur qilishda qiyinchilikka duch kelishlarini bildirganlar. Bu ko'rsatkich zoologiya ta'limida abstrakt tushunchalarni konkretlashtirish uchun tayanch belgilar (sxema va jadvallar) naqadar muhimligini ko'rsatadi.

O'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan tahlillar esa metodik bo'shliqni yuzaga chiqardi:

1. Texnik muammo: O'qituvchilarning 40 foizi maktabda kompyuter va proyektorlar yetishmasligini darsda multimedia qo'llamaslikning asosiy sababi sifatida ko'rsatgan.

2. Vaqt omili: 24 foizi respondentlar sifatli taqdimot tayyorlash uchun vaqt yetishmasligini ta'kidlashgan.

3. Metodik tayyorgarlik: O'qituvchilarning 38 foizi darslarda vizual vositalardan deyarli foydalanmaydi, bu esa ta'lim samaradorligini pasaytiruvchi omildir.

Statistik tahlillar ($\chi^2 = 12,34$; $p < 0,05$) shuni tasdiqladiki, darsda tayanch belgilar va multimedia vositalaridan kompleks foydalanish o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasini an'anaviy darsga nisbatan sezilarli darajada oshiradi.

Olingan natijalar R. Mayerning multimedia orqali o'rganish nazariyasiga to'liq mos keladi. Mayer ta'kidlaganidek, inson miyasi vizual va audial ma'lumotni bir vaqtda qabul qilganda bilim samaradorligi 60% gacha oshadi. Bizning tadqiqotimizda o'quvchilarning 42 foizi tayanch belgilar ma'lumotni xotirada saqlashga "juda yordam berishini" ta'kidlagani ham shundan dalolat beradi.

Zoologiya darslarida hayvonot dunyosining xilma-xilligini faqat og'zaki tushuntirish kutilgan natijani bermaydi. Masalan, sistematik guruhlarni o'rganishda ierarxik jadvallar va grafik organizatorlardan foydalanish o'quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning biologik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Tayanch belgilar va multimedia taqdimotlari zoologiya darslarida o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, mavzuni tushunish va eslab qolish samaradorligini oshiradi. Biroq, o'qituvchilarning texnik vositalar bilan yetarli ta'minlanganligi va vaqt tanqisligi ushbu metodlardan keng foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Asosiy tavsiyalar:

1. Biologiya xonalarini proyektor va kompyuterlar bilan jihozlash;
2. Zoologiya fanining har bir mavzusi bo'yicha tayyor tayanch belgilar va multimedia taqdimot shablonlarini yaratish;

3. O'qituvchilarni multimedia vositalaridan foydalanish bo'yicha Malaka oshirish kurslaridan o'tkazish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии: монография / Н.Н. Азизходжаева. – Ташкент: Fan, 2020. – 388 с. – ISBN 978-9943-00-000-0.
2. Толипова Ж.О. Биология ўқитиш методикаси: дарслик / Ж.О. Толипова. – Тошкент: O'qituvchi, 2019. – 312 б. – ISBN 978-9943-00-000-0.
3. Jonassen D.H. Modeling with Technology: mindtools for conceptual change / D.H. Jonassen. – 3rd ed. – Pearson : Merrill Prentice Hall, 2006. – 400 p. – ISBN 978-0131703425.
4. Mayer R.E. The Cambridge Handbook of Multimedia Learning / edited by R.E. Mayer. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 650 p. – ISBN 978-1107541175.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-may

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
– Toshkent: Scienceproblems team, 2026. – 70 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 8-may

ISBN 978-9910-8337-6-2

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.